



MADANIYATDA SINKRETIZM HAMDA UNING EKLEKTIKADAN FARQ QILINISHI

Yuldashev Izzat Ikramovich

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat
instituti o'qituvchisi, doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6380103>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-mart 2022

Ma'qullandi: 10-mart 2022

Chop etildi: 14-mart 2022

KALIT SO'ZLAR

Sinkretizm, madaniyat,
eklektika

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada sinkretizm bilan eklektikaning farqli tomonlari, ularning xususiyatlari, bir-biriga o'xshash jihatlari ilmiy tahlili keltirilib, sinkretik fenomenning madaniy hodisa va voqelikda qanday rol o'ynashi haqidagi mulohazalar yoritib berilgan.

Inson onggi va madaniyati shakllanish jarayonlaridagi odamga xos ayrim xususiyat va unsurlar semantik, verbal va noverbal, differensial va indeferensial, qarama-qarshi va adekvat (ayniyat) tarzda aks etib kelishi orqali, ular ijtimoiylashuv va madaniylashuvning immanent xususiyatlariga ijobiy yoki salbiy jihatdan muvofiq kelishi mumkin. Sinkretizmni nazariy-fenomenologik o'rganish globallashuv sharoitida etnomadaniyat, milliy madaniyat va umummilliy madaniyatlar borasidagi qarashlarga aniqlik kiritadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

"Falsafa qomusiy lug'ati" kitobida "sinkretizm" – yunoncha "synkretismos" – birlashtirish, qo'shish ma'nosi bildirilishi o'laroq, biron bir hodisani qismlarga bo'linmasligini, rivojlanmaganligini ifodalovchi tushuncha sifatida qayd etilgan [4. B-369.]. Lekin ushbu lug'atda qayd etilgan izoh Antik davr ilm-fanida tadqiq etilgan nazariy qarashlardan,

madaniyatshunoslikda o'rganilgan sinkretizm haqidagi mulohazalardan u yoki bu darajada farq qiladi.

Eklektika (yunon. eklektikos) – bir-biriga aloqasi bo'lmagan narsalarni bir-biriga qo'shish, tanlash, degan ma'noni beradi [6. B-359.]. "Falsafa qomusiy lug'at"da eklektika atamasi: "...turli va hatto bir-biriga zid qarashlar, g'oya va nazariyalarni mexanik ravishda qo'shib yuborish yoki ularni bir falsafiy ta'limotda birlashtirish" – sifatida qayd etilgan [4. B-455.]. "Falsafa: ensiklopedik lug'at"da esa: "Eklektika (yun. Eklektikos - tanlovchi) – turli xil, hatto bir-biriga qarama-qarshi g'oya, qarash, nazariyalarning "eng yaxshisi"ni tanlab olishga intilish" – deb ta'kidlab o'tilgan [5. B-309.]. Yuqoridagi eklektika haqida qayd etilgan izohlar deyarli bitta umumiy mazmun-ma'noni ifodalalaydi. Biroq, izohlardagi "tanlash", "bir falsafiy ta'limotda birlashtirish" va "eng yaxshisi"ni tanlab olish", degan so'zlar narsa va hodisalarni "subyektiv-notekis" va o'z-o'zicha "subyektiv" aspektida bir tizimdan boshqasiga saralab olgan holda,



biriktirishga urinishni ishora etadi. Tabiiyki, bunday birlashtirishning o'z-o'zicha, mexanik tarzda bo'lishi yo salbiy, yo ijobiy holatni yuzaga keltirishi mumkin. Madaniy-sinkretik narsa, hodisalarning bir-biriga birikishi, butunlikka qo'shib borishi va organik-moslashuvchanik haqidagi fikriy-voqeyiy tushunchalar, sinkretizm funksiyalari xususidagi turli konseptual qarashlar ilmiy-madaniy aspektda argumentlarsiz "noaniq", "aralash" "qorishiq" mulohaza tarzda qo'llanilmasligi lozim. Shu o'rinda, nafaqat ijtimoiy-madaniy kontekstda, balki ong, madaniyat va amaliyot shakllari aspektida ham sinkretizm bilan eklektika tushunchalarini ilmiy-pragmatik, semantik va fenomenologik asosda ajratib olish g'oyatda muhim.

Ye. Udovichenko sinkretizm xususida, jarayonning boshlang'ich holatini tavsiflash mumkinligini, hamma narsa hali ham birgalikda ekanini, hech qanday qismlarga ajratilmaganini, yaxlitlikning eng yuqori shakli bo'lganini, allaqachon rivojlanganlar yagona asosda birlashishi va yagona "monolit"ni ifodalashini ishora etgan [9. B-152-153.]. Ye. Udovichenko: "Bilishda sinkretik idrok etish obyektini mantiqiy jihatdan tarkibiy elementlarga bo'lmasdan, uning barcha qismlari birligida to'g'ridan-to'g'ri, yaxlit holda "ushlab qolish" demakdir" – deb qayd etgan edi [9. B-152-153.]. Lekin Ye. Udovichenko qarashlari bilan professor L. Mikeskina ta'kidlagan mulohazalarning u yoki bu darajada bir-biriga yaqinligini ilg'ab olish mumkin.

Faylasuf L.Mikeskina sinkretizm haqida yaxlit qismlar va hatto ta'limotlarning bir tekstda yonma-yon qo'yilishi sifatida bir qancha o'xshash bo'lmagan g'oyalar va qoidalarni o'zida

mujassam etganini ta'kidlagani o'laroq, eklektizmni epistemologik va metodologik yondashuvlar sifatida qo'llash va baholashning turli bosqichlarini bosib o'tganiga urg'u berib o'tgan edi [8. B-28.]. Shuni ham aytish kerakki, yaxlit qismlar va ta'limotlarning birlashtirilishida ularning yonma-yon turishi bir-biri bilan qorishib, aralashib ketishni anglatmaydi. Aniqrog'i, umumiyatda hodisa va predmetlarning yonma-yon turishi – ularning o'zaro moslashishi, shart-sharoitlari yuzaga kelishi uchun tartib va tizimning qaror topishiga dastlabki amalga oshadigan holatdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Professor A. Erkayev eklektik dunyoqarash xususiyatlari to'g'risida quyidagicha qayd etgan: "Masalaga bir tomonlama yondashuv, u yoki bu jihatini mutlaqlashtirish yoki hisobga olmaslik, yuqorida ta'kidlanganidek, xatolarga, fikr va xulosalar chalkash, eklektik (qorishikli), noilmiy bo'lishiga olib keladi. Haqiqiy to'g'ri dalillarga tayangan qarashlarning har xil xatolar, nohayotiy, diniy va mistik tushunchalar bilan aralashib, qorishib ketishi, barqaror qat'iy pozitsiyaning yo'qligi eklektik dunyoqarash deyiladi.

Eklektik dunyoqarash vaziyatga qarab tovlanib, baholarini, munosabatlarini o'zgartiradi. Agar bunday dunyoqarash egasi axloqiy beqaror inson bo'lsa, u siyosiy va axloqiy qarashlarida vaziyatga moslashuvchan konformistga, irodasi zaif bo'lsa, ma'lum sharoitda xoinlikka moyil insonga aylanadi. Shu sababli insonda dunyoqarashni, hayotga oqilona munosabatni tarbiyalashda uning ongida turli ilmiy va g'ayriilmiy qarashlarning mexanik tarzda qorishib ketmasligiga e'tibor qaratish lozim" [2. B-102.]. U



eklektik tafakkurning yana o'ziga xos kamchiliklariga ishora sifatida: "...eklektik tafakkur egasi qarama-qarshi tomonlarga og'ib turadi, turli g'arazli chaqiriqlar, soxta g'oyalar ortidan ergashishi mumkin" – deya ta'kidlagan [3. B-140.]. Muhimi, A.Erkayevning quyidagi mulohazalari orqali, ijtimoiy-madaniy hodisalarda madaniyat sinkretizmning moslashuvi va o'zgarishi haqidagi pragmatik-ma'naviy mazmunning tushunilishini va andozasini ilg'ab olish maqsadga muvofiqdir: "Ma'lumki, jamiyatda qaror topgan ta'lim-tarbiya, axloq-odob tizimi, din mavjud voqelikka insonni moslashtirishga, umumqabul qilingan me'yor va qoidalarni o'zlashtirishda ko'maklashishga xizmat qiladi. Bu holat barcha tuzumlar uchun xosdir" – deya ta'kidlaydi [3. B-82.]. Uning mulohazalaridan ibtidoiy madaniyatda sinkretizmning qay yo'sinda insonlar hayotini (sinkretik ong sifatida) madaniy-tizimli tarzda o'zgartirib yuborganini ilg'ab olish muhim: "Odamlar yovvoyilikdan ongli turmush kechirishga o'tishi, podani urug'-jamoaga aylanib, jamiyat paydo bo'lishi jarayonida o'z munosabatlarini asta-sekin tartibga sola boshlaganlar. Dastlab onalar va bolalar, otalar va qizlar, akalar va singillar o'rtasidagi jinsiy aloqalar taqiqlangan, so'ng boshqa taqiqlar va majburiyatlar paydo bo'lib, yaxlit sinkretik ong doirasidagi axloqiy, diniy qarashlarda va urf-odatlarda tizimlashgan. Tabiatga munosabatlar ham tizimlashib borgan. Natijada ilk xulq-atvor me'yorlari, marosimlar, ilk diniy tasavvurlar vujudga kelgan. Ular avloddan-avlodga o'tib, boyib, takomillashib, murakkablashib borgan" [1. B-46.].

S.Gutova antik davr oxiridan XX asrning birinchi yarimigacha ilmda sezilarli ta'sirni ta'kidlagan holda,

neoplatonizmning nazariy va uslubiy tamoyillari, tizimli ifoda shakllari umumiy birlik tizimlarini qurishga asos bo'lganini ta'kidlaydi [7. B-21-22, 310.]. U o'z tadqiqotida Brokgauz va Yefronalarning lug'atidagi eklektizm haqida, tanqid orqali izchil tamoyillarni turli tizimlardan ajratib olishga va ularni bir butunga uzviy ravishda bog'lashga harakat qilish deb, sinkretizmni esa o'xshash bo'lmagan tamoyillarni birlashtirib, ularga haqiqiy birlashishni bermasligi deb urg'u berib o'tgan edi [7. B-33.]. Lekin S.Gutova tarixiy-falsafiy nuqtayi nazardan sinkretizmni eklektikaning bir turi sifatida etibor bergan holda, zamonaviy madaniyat, fan, falsafaning dolzarb ehtiyojlari uni intellektual va madaniy ijodkorlikning o'zaro bog'liq hodisasi sifatida tan olinishini, bu ularning turli xil madaniy elementlarning boshlang'ich munosabatlariga asoslangan organik sintez prinsipi ekanini, sinkretizm umuman madaniyatga nisbatan madaniy-generativ va madaniy-genetik va nazariy shakllarga nisbatan dekonstruktiv-falsifikatsiyalashtirish, tizimli-sinkretik funksiyalar bajarishini ta'kidlagan edi [7. B-21.].

Tarixiy jarayonlar silsilasi shuni anglatadiki, insonlarning munosabatlari qolipida ba'zan eklektik qarashlardan chiqib, kritik-analitik va argumental-kreativ to'xtamga kelish, sinkretik qarashlar tomon tartibga tushish, tizimlashib borish, garmoniya, birlashish (hatto nihoyasiga yetmagan tarzda ham) amalga oshgan bo'lsa, ba'zan obyektga munosabat qilishda notekis-nomutanosib, abstraktiv-nohaqqoniy tarzda sinkretik qarashlardan chetga chiqib, eklektik qarashlarga moyilliklar kuzatilganiga ham ishora etadi. Dunyoviy munosabatlarda



inson butunlikning ikki qarama-qarshi yo'lidan birini o'zi tanlab kelgan, u o'z madaniy-umuminsoniy, ruhiy-gumanistik, ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy-haqqoniy qarashlari qay darajada rivojlanganiga qarab, (ba'zida mutlaq bo'lmasa ham) o'zicha ma'qul topgan yo'nalishda ketavergan. Inson mana shunday tanlovlarda ba'zan adashgan bo'lsa, ba'zan boshqa paytda tegishli xulosalar chiqarib o'zini-o'zi takomillashtirib, hayotini tartib-intizom asosida qurishga, pragmatik, ijobiy tomonlama tizimli turmush kechirishga, narsa-hodisalarni obyektiv o'rganish uchun haqqoniy bo'lishga o'z e'tiborini qaratib kelgan ongli xilqatdir.

XULOSA

Garchand sinkretizm bilan eklektika fenomenlari, tushunchalari tarix silsilasida bir-biriga ancha yaqin, o'xshash ma'noda va ba'zida konvergen tarzda ifodalanilgan, tegishli maqsad va ilmiy qarashlarga

movofiqlashtirilib-qo'llanilib kelingan bo'lsa-da, lekin ular ayni zamonda fenomenologik, ilmiy-metodologik, epistemologik (gnoseologik) va amaliy-pragmatik tarzda integrativ-diskurssiv, postmodernistik, differensial xarakterga, hatto ayrim hollarda bir-biriga nisbatan muttasil qarama-qarshilik tendensiyalariga ham ega.

Xullas, sinkretizm ayni globallashuvda manfaat, ehtiyoj va maqsadlardan kelib chiqilib, u turli madaniy sohalarga, madaniyatshunoslik kontekstiga, bir tomondan, madaniy-kritik, madaniy-kreativ, madaniy-metodologik, madaniy-analitik va madaniy-fenomenologik tarzda alohida-alohida o'rirlarni egallayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa u madaniy-pragmatik va umummadaniy asnoda singib borayotganini ta'kidlash g'oyatda muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Erkayev A. Ma'naviyatshunoslik. 1-kitob. Ma'naviyat ontologiyasi va fenomenologiyasi. – T.: 2018. – 480 b.
2. Erkayev A. Ma'naviyatshunoslik. 2-kitob. Ma'naviyat metodologiyasi va praksiologiyasi. T.: “Ma'naviyat”, 2018. – 456 b.
3. Erkayev A. Tafakkur erkinligi. – T.: “Ma'naviyat”, 2007. – 160 b.
4. Falsafa qomusiy lug'at. T.: Sharq, 2004. – 491 b.
5. Falsafa: ensiklopedik lug'at. – T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2010. – 344 b.
6. Falsafa qisqacha izohli lug'at. – T.: Sharq, 2004. – 384 b.